




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

O'z.KTI

№3 - 2025 (4) ISSN: 3060-5024



MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

Tahrir hay'ati raisi

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

Institut boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tahrir hay'ati a'zolari

Niyazmetov Ikrom Masharipovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi, tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

Sharafutdinov Alisher Ozodovich

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, dotsent

Jalolov Baxtiyor Odilovich

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

Ismailov Isamiddin

yuridik fanlar doktori, professor

Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich

yuridik fanlar doktori, professor

Otajonov Abrorjon Anvarovich

yuridik fanlar doktori, professor

Rajabov Baxtiyor Almaxmatovich

yuridik fanlar doktori, professor

Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich

yuridik fanlar doktori, professor

Safarov Djahongir Ismoilovich

yuridik fanlar doktori, dotsent

Ganiyev Sherzod Alisherovich

yuridik fanlar doktori, dotsent

Ollamov Yarash Yo'ldoshevich

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Azim Shuhrat Obid o'g'li

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Bazarov Farrux Abdugafurovich

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Mirzayev Jahongir Umrzakovich

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Sirliyev Baxtiyor Nazarovich

psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Yernazarov Solijon Yerkinovich

iqтisod fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yarov Bekmamat Alikulovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, bosh muharrir

MUNDARIJA

KRIMINOLOGIK NAZARIYA VA TAHLIL

Berdialiyev B.E.

Ijtimoiy profilaktikaning kriminologik vaziyat barqarorligidagi o'rni 3

Якубов А.С., Азим Шухрат

Механизм правовой регламентации уголовной ответственности юридических лиц 9

Irisbekov U.

Tovlamachilik va firibgarlik jinoyatlarining jinoiy-huquqiy tavsifi va ularni farqlash mezonlari 19

Tazetdinov R.R., Xoliqov Sh.A., Ikanov A.A.

The issue of social networks page cyber profiling 25

Akramov X.F.

Zamonaviy jamiyatda o'z joniga qasd qilishning nazariy asoslari va amaliyoti 30

Jo'rayev M.U.

Jamoat xavfsizligi tushunchasi to'g'risida ekspert baholari 37

Исаев С.А.

Оценка загрязнения воздуха и последствий для здоровья от пиротехнических изделий: вызовы и перспективы 41

A'loxonov M.A.

Zamonaviy kriminologiya: jinoyatchilikning oldini olishda innovatsion yondashuvlar va kriminologik prognoz metodlari 49

KRIMINOLOGIK TADQIQOT VA AMALIYOT

Тураббаев Х.А.

Киберпреступность и права человека: особенности правового регулирования и их взаимодействие 54

Nurmuhammedova G.B.

Boshqaruv tartibiga qarshi sodir etiladigan korrupsiyaga oid jinoyatlarga qarshi jinoiy-huquqiy kurash 60

Mirzayev J.U.

Shaxslarning qayta jinoyat sodir etish holatlari va ma'lumoti bo'yicha tahlillar asosida ko'rilishi lozim bo'lgan qo'shimcha chora-tadbirlar 70

Andrea Domokos, Alokxonov Mukhammadmirzokhan

Methodology and methodological foundations of research in modern criminology 76

Tahririyat manzili:

100187, Toshkent shahri

Mirzo Ulug'bek tumani

Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243

Tel.: +998 (71) 231-39-77

Elektron pochta: info@uzkti.uz

Website: kti.iiv.uz

© O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti

Jurnal 2024-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669658 raqami bilan ro'yxatga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 12-fevraldagi 367/5-son qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.



Muminova Gulnora Taxirovna

Katta muharrir, dizayn

Uralova Dilafruzaxon Muminjon qizi

Musahhih

Original-maket O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to'liq yoki qisman ko'chirilib bosilganida «O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining «Kriminologik faoliyat» ilmiy-amaliy jurnali»dan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar, ko'chirmalar, iqtisodiy statistik ma'lumotlar rostligi va aniqligi uchun muallif javob beradi.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma taqriz qilinmaydi va qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi.

Bichimi 60x40 1/8.

Bosma tabag'i 9,0

Adadi 50 nusxa

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida chop etilgan.

Bosishga ruxsat etildi 15.09.2025

Buyurtma № 25/44

MUNDARIJA

J'oraboyev O.A.

Ichki ishlar organlarida murojaatlarni ko'rib chiqish davomida shaxsning huquq va erkinliklarini ta minlash asoslari 82

Xasanov Sh.E.

Mahalla jinoyatchiligining oldini olishda ijtimoiy profilaktikaning roli 88

ILG'OR XORIJIY TAJRIBA

Adilkariyev X.T., Murodov A.Sh.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik profilaktikasiga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasi tahlili 95

Nigmatov R.O., Kuchkarov T.R., Asqarov M.M.

Profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini baholashda innovatsion yondashuv: Buyuk Britaniya tajribasi asosida 103

TADQIQOTCHI MINBARI

Rixsimov K.A.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosining tushunchasi va uning tarixiy-falsafiy asoslari 111

Nasrullayev F.S.

Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish institutining milliy va xalqaro huquqda amalga oshirilishining dolzarb muammolari 115

Axmedov A.A.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi (masofadan turib nazorat qilish misolida) 120

Maxtumova Yu.B.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarning profilaktikasidagi ustuvor yo'nalishlar 126

Садриддинов Ш.Ш.

Понятие и значение миграционных процессов в Республике Узбекистан: правовые и социально-экономические аспекты 134

HUQUQ ILMI DARG'ALARI

Vasiqova M.S., Rahmonqulov X.R., Azizxo'jaev A.A. 138

TADBIRLAR

"Jinoyatchilikni ilmiy tadqiq qilishning dolzarb masalalari" mavzusida press-tur va matbuot anjumani 140

Xalqaro politsiya assotsiatsiyasi O'zbekiston klubi va O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti o'rtasida hamkorlik aloqalari mustahkamlandi 142

ZAMONAVIY KRIMINOLOGIYA: JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA KRIMINOLOGIK PROGNOZ METODLARI



A'loxonov Muxammadmirzoxon Adhamxon o'g'li
Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy kriminologiya fanining jinoyatchilikning oldini olish borasidagi innovatsion yondashuvlari hamda kriminologik prognozlash metodlari har tomonlama tahlil qilingan. Tadqiqotda huquqiy islohotlar, ijtimoiy hamkorlik, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tizimidagi innovatsiyalar tahlil qilinib, olingan natijalar asosida jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini takomillashtirish yuzasidan xulosa va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy kriminologiya, jinoyatchilikning oldini olish, innovatsion yondashuvlar, kriminologik prognoz, jinoyatchilik profilaktikasi, bashorat qilish metodlari.

СОВРЕМЕННАЯ КРИМИНОЛОГИЯ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ ПРЕСТУПНОСТИ И МЕТОДЫ КРИМИНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются инновационные подходы к предупреждению преступности в современной криминологии и методы криминологического прогнозирования. В исследовании анализируются инновации в области правовых реформ, социального взаимодействия, современных технологий и систем управления, и на основе полученных результатов даются выводы и практические рекомендации по совершенствованию системы предупреждения преступности.

Ключевые слова: современная криминология, предупреждение преступности, инновационные подходы, криминологический прогноз, профилактика преступлений, методы прогнозирования.

MODERN CRIMINOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES TO CRIME PREVENTION AND METHODS OF CRIMINOLOGICAL FORECASTING

Abstract. This article comprehensively analyzes the innovative approaches of modern criminology to crime prevention and criminological forecasting methods. The study analyzed legal reforms, social partnership, modern technologies and innovations in the management system, based on the results obtained, conclusions and practical recommendations for improving the system of combating crime were given.

Keywords: modern criminology, crime prevention, innovative approaches, criminological forecasting, crime prevention, forecasting methods.

Zamonaviy taraqqiyot va globallashuv sharoitida insoniyat xavfsizligiga tahdid solayotgan transmilliy jinoyatlar, terrorizm, narkobiznes, odam savdosi kabi xatarlar kuchayib bormoqda. Jahonda bu tahdidlarga barham berish va o'z vaqtida oldini olish bo'yicha zamonaviy va samarali tizimni yo'lga qo'yish zarurati ortib bormoqda [1]. Xalqaro ekspertlarning ma'lumotlariga ko'ra, har yili odam savdosi

jinoyati tufayli dunyo bo'yicha 3 milliondan ortiq shaxs jabrlanuvchiga aylanishi jinoyatchilikning global muammoga aylanganini ko'rsatadi [2]. Jinoyatchilik dunyo hamjamiyati taraqqiyotiga putur yetkazuvchi omillardan biriga aylangani bois uni jilovlash uchun yangicha yondashuv va usullarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy kriminologiya fanida jinoyatchilikning oldini olishga innovatsion yondashuvlar

shakllanib bormoqda. Ushbu maqolaning maqsadi – jinoyatchilik profilaktikasini yangi bosqichga ko'tarish uchun qo'llanilayotgan innovatsion usullar hamda jinoyatchilikni kriminologik prognoz metodlarini tahlil qilishdan iborat. Maqolada mazkur masalaning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilib, O'zbekiston va jahondagi ilg'or tajribalar misolida tahlil va xulosalar keltiriladi.

Jinoyatchilikning oldini olish borasida ko'plab mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Kriminologiyada "jinoyatchilik profilaktikasi" tushunchasi keng qamrovli chora-tadbirlar tizimi sifatida qoraladi. Jumladan, S.B. Xo'jaqulov o'z tadqiqotida huquqbuzarliklar profilaktikasini huquq-tartibot idoralari va boshqa vakolatli subyektlar amalga oshiradigan, huquqbuzarlik sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan kompleks faoliyat deb tavsiflaydi. Jinoyatchilik profilaktikasi turli daraja va ko'rinishlarga ega bo'lib, umumiy (barcha jamiyat miqyosidagi) profilaktika hamda xususiy (ma'lum hudud yoki soha doirasidagi), shuningdek, individual (muayyan shaxsga nisbatan) profilaktika chora-tadbirlari farqlanadi. Ilmiy manbalarda profilaktika choralari ta'sir obyektiga ko'ra kriminologik (jinoyat sodir etilishining oldini olish) va viktimologik (fuqarolar jabrlanishining oldini olish) turlarga ham ajratib o'rganilgan [2]. Zamonaviy kriminologik yondashuvlarda ayniqsa viktimologik yo'nalish (jabrlanuvchilarning himoyasi va ular orqali jinoyatlarning oldini olish) alohida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi profilaktikasi (B.A. Umirzaqov), ayollar o'rtasidagi jinoyatchilik profilaktikasi (Q.R. Abdurasulova va A.G. Zakirova tadqiqotlari) kabi maxsus yo'nalishlar ham ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Bu tadqiqotlar jinoyatlarning alohida toifalarini jilovlashda o'ziga xos yondashuv va usullarni taklif qilgan. Xususan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kamaytirish uchun barvaqt profilaktika va tarbiyaviy choralarga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlangan [7], ayollar jinoyatchiligining oldini olishda esa ijtimoiy-ma'rifiy tadbirlar va oilaviy muhitni sog'lomlashtirish muhimligi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, kriminologik prognozlash masalasi ham adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, unga jinoyatchilikka qarshi kurashning muhim qismi sifatida qarashadi. Kriminologik prognoz (bashorat) – bu jinoyatchilik holatining rivojlanishidagi asosiy o'zgarishlarni (tendensiyalarni) yoki ayrim shaxslarning yaqin kelajakda jinoyat sodir etish ehtimolini ilmiy asosda oldindan ko'ra bilish [6; 5-6-b.]. Ushbu tushuncha jinoyatchilikning kelgusidagi holatini ilmiy taxmin qilishni nazarda tutadi.

Jinoyatchilikning oldini olish sohasida innovatsion yondashuvlar deganda, an'anaviy usullar (huquqbuzarlik sodir bo'lgandan keyingi jazolash yoki odatiy patrullik)dan farqli o'laroq, zamonaviy ilm-fan yutuqlari, yangi texnologiyalar va non-standard tashkiliy-uslubiy choralarni qo'llash tushuniladi. Bunda huquqiy, ijtimoiy, texnologik, boshqaruv (ma'muriy) yo'nalishlardagi yangicha tashabbuslar alohida ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash faqat huquq-tartibot organlari doirasida qolmay, balki keng jamoatchilik ishtirokida olib borilgandagina samarali bo'lishi mumkin. Zamonaviy profilaktikaning muhim innovatsion jihati – fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarini faol jalb qilishdir. Xalqaro tajribada bu yo'nalish "community policing" (jamoat bilan hamkorlikda polis faoliyati) tamoyili sifatida yaxshi ma'lum. O'zbekistonda ham jamoatchilik ishtirokini kengaytirish borasida bir qator tashabbuslar mavjud. Taniqli olim N.Xushvaqtova tomonidan olib borilgan tadqiqotda keltirilishicha, jahon amaliyotida tergovga qadar jarayonda ham jamoatchilik yordamidan foydalanish keng qo'llanilmoqda, masalan, Buyuk Britaniya, AQSH va boshqa davlatlarda volontyor tergov yordamchilari instituti joriy etilgan bo'lib, bu tizim jinoyatlarni fosh etishda muhim rol o'ynamoqda [4]. O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda "Obod va xavfsiz mahalla" konsepsiyasi doirasida "xonadonbay" profilaktik suhbatlar, muammoli oilalar bilan manzilli ishlar kabi ijtimoiy profilaktika tadbirlari keng yo'lga qo'yildi. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan targ'ibot ishlari ham profilaktikaning

ajralmas qismidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aholining huquqbuzarlikka nisbatan murosasizligini shakllantirish, huquqiy savodxonlikni yuk-saltirish jinoyat sodir bo'lishining ijtimoiy zaminini susaytiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi huquqni muhofaza qilish sohasiga ham katta o'zgarishlar olib kirdi. Jinoyatchilikning oldini olishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish – innovatsion yondashuvlarning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Xususan, “Xavfsiz shahar” konsepsiyasi doirasida keng ko'lamli videokuzatuv tizimlari o'rnatilishi jinoyatlarning barvaqt oldini olish va fosh etish imkonini oshirmoqda. Yangi avlod kuzatuv kameralarining o'ziga xos jihati shundaki, ular sun'iy intellekt asosida ishlaydi va inson chehrasini yoki avtomobil raqamini avtomatik tanib, ma'lumotlarni markaziy baza bilan solishtiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday “aqlii kameralar” jinoyatchilikni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi, masalan, Xitoy tajribasiga ko'ra, yuzni aniqlash funksiyasiga ega kameralar o'rnatilgach, jamoat joylaridagi o'g'rilik va bezorilik holatlari keskin pasaygan. O'zbekiston huquqni muhofaza qilish organlari ham bosqichma-bosqich ushbu texnologiyalarni joriy etmoqda. Ichki ishlar organlarining maxsus “102” markazlari hozirda shahar ko'chalari va maydonlaridagi kameralar monitoringini olib borib, huquqbuzarlik alomatlarini payqashi bilan hududga patruldagi xodimlarni yuborish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari Prezidentimizning 2025-yil 18-avgustdagi PQ-253-son qarori asosida “Namunali xavfsiz ko'cha” va “namunali xavfsiz uy” konsepsiyalari amaliyotga joriy etildi.

Bundan tashqari, mutaxassislar fikriga ko'ra, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda hududlarning geokriminologik xaritalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish zarur [1]. Jinoyatchilik xaritalarini tuzish (crime mapping) hozirda AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya kabi davlatlarda oddiy holga aylangan – maxsus dasturlar orqali real vaqt rejimida jinoyatlar statistikasi xaritaga tushi-

rib, qaysi hududda qaysi turdagi jinoyat ziyoda ekani aniqlanadi. Bu ma'lumot asosida politsiya kuch va vositalarini to'g'ri taqsimlash, profilaktik reydlar o'tkazish rejalari tuziladi. O'zbekistonda ham bu borada ilk qadamlar qo'yilgan bo'lib, poytaxt Toshkent shahrida jinoyatchilik statistikasi bo'yicha mahallalar kesimida xaritalar tayyorlanmoqda. Kelgusida ushbu jarayonga sun'iy intellekt yordamida bashorat qilish funksiyasini qo'shish rejalashtirilgan.

Kriminologik prognoz metodlari. Jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etuvchi yo'nalishlardan yana biri – kriminologik prognozlash, ya'ni jinoyatchilik rivojining ehtimoliy tendensiyalarini oldindan aytib berishdir. Jinoyatchilik ko'laminig ortishi yoki kamayishi, ularning tuzilmasidagi o'zgarishlar, yangi turdagi jinoyatlar paydo bo'lishi kabi holatlarni prognoz qilish huquqni muhofaza qilish organlariga oldindan tayyorgarlik ko'rish va zarur choralarni rejalashtirish imkonini beradi. Shu sababli, zamonaviy kriminologiyada “ilmiy prognoz” masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kriminologik prognoz turlari orasida eng avvalo umumiy prognoz va maxsus prognoz farqlanadi. Umumiy (yoki makro) kriminologik prognoz butun jamiyat miqyosida jinoyatchilikning rivojlanishini taxmin qiladi, masalan, kelgusi yil yoki yillarda jinoyatlar soni qanchaga o'zgarishi, qaysi toifadagi jinoyatlar oshishi yoki kamayishi kutilayotgani to'g'risida umumiy xulosa beradi. Maxsus prognoz esa aniqroq yo'nalishga ega bo'lib, muayyan turdagi jinoyatchilik (masalan, iqtisodiy jinoyatlar yoki voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi) bo'yicha yoki ma'lum hudud bo'yicha bashoratni ifodalaydi. Bundan tashqari, individual kriminologik prognoz degan tushuncha ham mavjud – bunda ayrim shaxsning kelgusida jinoyat sodir etishi ehtimolini aniqlashga harakat qilinadi. Masalan, probatsiya nazoratidagi shaxsning qayta jinoyat sodir etish xavfini baholash shunday individual prognoz turiga kiradi.

Kriminologik prognozlashning samarali bo'lishi ko'p jihatdan qo'llaniladigan metodlarga bog'liq. Ilmiy adabiyotlarda prognoz usullari turli-

cha tasnif qilinadi, biroq keng tarqalgan metodlar quyidagilar:

Statistik-ekstrapolyativ metod: bu usul o'tgan yillardagi jinoyatchilik statistik ma'lumotlarini tahlil qilib, aniqlangan tendensiyalar asosida kelgusidagi holatni taxmin qilishga asoslanadi. Masalan, so'nggi 5 yilda o'g'irlik jinoyatlari yildan-yilga 5% oshib borgan bo'lsa, ekstrapolyatsiya qilish yo'li bilan keyingi yil ham taxminan shuncha foiz oshishi prognoz qilinadi.

Ekspert-bahs metodlari: bunda tajribali mutaxassislar (kriminologlar, sotsiologlar, huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari) ishtirokida kelgusidagi kriminologik vaziyat muhokama qilinadi va ilmiy asoslangan fikrlar shakllantiriladi. "Delphi usuli" eng mashhur ekspertli prognozlash metodlaridan biri bo'lib, unda mustaqil ekspertlarning bir necha bosqichli so'rovi orqali yakuniy yondashuvga erishiladi. Masalan, mamlakat bo'yicha og'ir jinoyatlar dinamikasini prognoz qilish uchun 20 nafar ekspertga maxfiy so'rovnoma yuborilib, ulardan kelgusi 3 yilda holat qanday o'zgarishi haqidagi fikrlari (foizlarda) so'raladi. So'ngra javoblar umumlashtirilib, o'rtacha ko'rsatkich va fikrlar tafovuti ekspertlarga yana qayta taqdim etiladi – ular esa o'z javoblarini qayta ko'rib chiqadilar. Bir necha aylanishdan so'ng ekspertlarning fikri muayyan nuqtada mutanosiblikka keladi. Ana shu yakuniy xulosa prognoz sifatida qabul qilinadi. Bu usul inson omiliga tayanishi sababli subyektiv bo'lishi mumkin, biroq bir guruh malakali mutaxassislarning jamlangan fikri ko'pincha haqiqatga yaqin prognozni beradi.

Matematik modellash va sun'iy intellekt: XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida kriminologik prognozlashda murakkab matematik modellar, kompyuter dasturlari keng joriy etila boshladi. Bu usul ko'plab omillarni bir vaqtning o'zida hisobga olgan holda bashorat chiqarish imkonini beradi. Masalan, regression modellash orqali jinoyatchilikka ta'sir etuvchi iqtisodiy, demografik, ijtimoiy omillar (YAIM o'sishi, ishsizlik darajasi, shahar aholisi ulushi, yoshlar soni va h.k.) bilan jinoyatlar soni o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi va kelgusida ushbu omillarning kutilayotgan qiymatlari asosida

jinoyat ko'rsatkichlari prognozi tuziladi. Bunday ilmiy yondashuv inson uchun mushkul bo'lgan ko'p o'zgaruvchili vaziyatni baholashga yordam beradi.

Kriminologik prognozlash metodlari samaradorligini oshirish uchun bir nechta shartlar muhim: birinchidan, ishonchli va to'liq statistik ma'lumotlar bazasining mavjudligi, ikkinchidan, malakali mutaxassislarning zamonaviy tahlil usullarini egalashi, uchinchidan, prognoz natijalarini amaliy qarorlar qabul qilishga integratsiya eta oladigan boshqaruv mexanizmining bo'lishi.

Jinoyatchilikni prognozlash bugungi kunda huquqni muhofaza qilish faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bashorat qilish vositalarisiz profilaktika rejalari yoki jinoyatchilikka qarshi strategiyani to'g'ri yo'naltirish qiyin. Zamonaviy kriminologiya fani va amaliyoti esa bu yo'nalishda tobora ko'proq innovatsion usullarni taklif etmoqda.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosa va takliflarni ilgari surish mumkin:

Jinoyatchilikning oldini olishda kompleks yondashuvning zarurligi. Zamonaviy kriminologiya tajribasi ko'rsatmoqdaki, profilaktika faqat huquqiy yoki faqat kuch ishlatar yo'l bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy chora-tadbirlar majmuini birgalikda qo'llash lozim. Shu bois huquqbuzarliklar profilaktikasini yanada takomillashtirish uchun barcha tegishli idoralar va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish tavsiya etiladi. Har bir mahalla darajasida hokimiyat organlari, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotinqizlar faoli va fuqarolardan iborat doimiy ishchi guruhlar tashkil etib, ular hududning kriminogen muammolarini muntazam muhokama qilib borishi samara beradi.

Ijtimoiy profilaktika choralari kengaytirish. Jinoyatchilikning ildiz omillari ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar (ishsizlik, ma'lumotning yetishmasligi, oilaviy muammolar) bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois, profilaktika ijtimoiy dasturlar bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Xususan, yoshlar o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, migratsiya jara-yonlarini tartibga solish, oilalarni ijtimoiy qo'llab-

quvvatlash dasturlari jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi. Maktab va oliy o'quv yurtlarida huquqiy bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan maxsus kurslar va yangi avlod o'quv metodlarini ko'paytirish zarur. Aholining huquqiy savodxonligini yuksaltirish uchun televideniya va internetda innovatsion formatdagi dasturlar (masalan, interaktiv huquqiy tok-shoular, huquqiy maslahatlarga ixtisoslashgan veb-saytlar) tashkil qilish lozim.

Kriminologik prognozlashni rivojlantirish. Jinoyatchilikning oldini olish siyosatini to'g'ri belgilash uchun sifatli kriminologik prognozlar zarur. Shu sabab, IIV va boshqa tegishli idoralarda ilmiy prognozlash imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Hozircha respublikamizda bu soha endi shakllanmoqda, Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan jinoyatchilikni ilmiy tahlillar orqali kompleks ilmiy diagnoz qilish va ilmiy prognoz qilish tadqiqotlari izchil davom ettirilmoqda. Kelgusida har bir viloyat ichki ishlar boshqarmasi huzurida kriminologik tahlil va prognoz bo'limlarini tashkil etish mumkin. Mazkur bo'limlar nafaqat statistikani yig'ish, balki tahlil qilish va kelgusi xavflarni bashorat qilish vazifasini bajaradi. Buning uchun

ularni tegishli dasturiy ta'minot (statistik tahlil paketlari) va mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash lozim. Kriminolog mutaxassislarni tayyorlashda prognozlash metodlariga oid maxsus kurslar (masalan, kriminologiyada matematik usullar, sotsiologik tadqiqot usullari) joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy kriminologiyada jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha innovatsion yondashuvlar kompleks choralarni amalga oshirishni taqozo etadi. O'zbekiston tajribasi ko'rsatmoqdaki, huquqiy islohotlar, jamoatchilikni safarbar etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish orqali jinoyatchilik ustidan nazoratni kuchaytirish imkoni mavjud. Xorijiy ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirib qo'llash, kriminologik prognozlash metodlarini takomillashtirish esa ushbu sa'y-harakatlarning natijadorligini oshiradi. Zamonaviy kriminologiya fani va amaliyoti integratsiyalashgan holda rivojlangan sari, jinoyatchilikning oldini olish tizimi yanada puxta va samarali bo'lib boraveradi.

Foydalanilgan manbalar

1. Ismoilov I., Abdurasulova Q.R., Fazilov I.Yu. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 252 b. (25–26, 88-b.).
2. Fozilov I.Yu. Jamoat xavfsizligi nazariyasining metodologik asoslari: O'quv qo'llanma. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, 2023. – 161 b. (14–15-b.).
3. "Jinoyatchilikka qarshi kurashning jinoiy-huquqiy va kriminologik muammolari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2023-yil 16-oktyabr). – T.: Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – 607 b. (23–30-b.).
4. Mirshayeva N.X. Ayollar tomonidan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish masalalari: Yuridik fanlar bo'yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: IIV Akademiyasi, 2022. – 48 b. (33–36-b.).
5. Ismoilov I. va boshq. Kriminologiya. Maxsus qism: Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 682 b. (236–239-b.).
6. Xo'jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (ichki ishlar organlari faoliyati misolida). – PhD dissertatsiya. – Toshkent, 2018. – B. 93-102, 117-125.
7. Saitqulov Q.A. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo'yicha faoliyatini takomillashtirish. – PhD dissertatsiya. – Toshkent, 2020. – B. 25-27, 252-260, 6022-6030.
8. Umirzakov B.A. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olishni takomillashtirish. – PhD dissertatsiya. – Toshkent, 2021. – B. 117-125, 141-148.
9. Xushvaqtova N.A. Ishni sudga qadar yuritishda jamoatchilik ishtirokini takomillashtirish. – PhD dissertatsiya. – Toshkent, 2023. – B. 113-121, 118-127.
10. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" (14.05.2014 y., O'RBQ-371-son) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., №20, 224-modda.
11. Chotbaev M.R. va boshq. Jinoyatlarni kriminologik bashorat qilish: O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – 50 b.
12. Maiboroda V.A., Razumovskaya N.P. Sun'iy intellekt yordamida maxsus profilaktika (Специальная превенция с использованием нейросетей) // Ekspert-kriminalist ilmiy jurnali, 2024, №4. – B. 18–20.